



INNOVATIVE METHODS AND TOOLS FOR STUDYING NATIONAL HERITAGE IN THE EDUCATION SYSTEM

Dano Inayatovna Mamadaliyeva

Master's student at the National University of Uzbekistan

d.mamadaliyeva@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: national heritage, innovative methods, education system, digital platform, interactive method, values, spirituality, pedagogical technology.

Received: 22.08.25

Accepted: 23.08.25

Published: 24.08.25

Abstract: This article analyzes innovative methods and tools for studying national heritage within the education system, as well as the role of modern pedagogical technologies, digital learning platforms, and interactive methods in transmitting national values to the younger generation. In addition, it substantiates effective ways of developing students' spiritual and moral worldview, social activity, and creative potential through the integration of national heritage into the educational process.

TA'LIM TIZIMIDA MILLIY MEROSNI O'RGANISHNING INNOVATSION USULLARI VA VOSITALARI

Dano Inayatovna Mamadaliyeva

O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti

d.mamadaliyeva@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: milliy meros, innovatsion usullar, ta'lim tizimi, raqamli platforma, interaktiv metod, qadriyat, ma'naviyat, pedagogik texnologiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimida milliy merosni o'rganishning innovatsion usullari va vositalari, shuningdek, milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim platformalari va interaktiv metodlarning o'zni tahlil qilingan. Shuningdek, milliy merosni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali talabalarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning samarali yo'llari asoslab berilgan.

ОБУЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОМУ НАСЛЕДИЮ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ: ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И СРЕДСТВА

Дано Инаятовна Мамадалиева

Магистрант Национального университета Узбекистана

d.mamadaliyeva@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: национальное наследие, инновационные методы, система образования, цифровая платформа, интерактивный метод, ценности, духовность, педагогическая технология.	Аннотация: В данной статье анализируются инновационные методы и средства изучения национального наследия в системе образования, а также роль современных педагогических технологий, цифровых образовательных платформ и интерактивных методов в передаче национальных ценностей молодому поколению. Кроме того, обоснованы эффективные пути развития духовно-нравственного мировоззрения, социальной активности и творческого потенциала студентов посредством интеграции национального наследия в образовательный процесс.
--	--

Kirish. Globallashuv jarayonida ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri - milliy merosni chuqur o'rganish va uni zamonaviy pedagogik amaliyotga integratsiya qilishdan iboratdir. Chunki milliy meros — xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, madaniy identifikatsiyasi va milliy o'zlikni anglashining muhim determinanti sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, milliy merosni o'rganish jarayonida innovatsion yondashuvlar, ya'ni raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, muammoli ta'lim, gamifikatsiya, blended learning (aralash ta'lim) hamda virtual-ta'lim platformalaridan samarali foydalanish dolzarb ilmiy-pedagogik zaruratga aylanmoqda. Bunda UNESCOning madaniy merosni saqlash konsepsiyasi, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va pedagogik innovatsiyalar nazariyasi asosiy metodologik mezon bo'lib xizmat qiladi[1]. Milliy merosni o'quv jarayoniga integratsiya qilish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki yosh avlodning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish, kreativ tafakkurini shakllantirish, global ilmiy-ma'rifiy jarayonda milliy o'ziga xoslikni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Milliy merosning tarixiy va falsafiy ildizlari, milliy ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida milliy o'zlikni yuksaltirish, milliy qadriyatlarga asoslangan taraqqiyot omillari, ma'naviy meros targ'ibotining metodologik asoslari bugungi olimlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Asosiy qism. Milliy meros har bir xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, ilmiy va madaniy boyligining mujassam ifodasidir. U nafaqat o'tmish avlodlarning hayot tajribasi, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun ham bebaho tarbiyaviy maktabdir. Ta'lim tizimida milliy merosni o'rganish jamiyatda barkamol shaxsni shakllantirish, milliy g'urur va vatanparvarlik ruhini yuksaltirish, shuningdek, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy dunyoda ta'lim shaxs va jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ta'limdagi innovatsion yondashuvlar zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni, interaktiv metodlarni joriy etishni, shuningdek, muammoga yo'naltirilgan ta'lim va loyiha asosida ishlash metodlarini faol qo'llashni o'z ichiga oladi[2]. Ushbu usullar talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga, ijodiy o'zini namoyon etishga va tez o'zgarayotgan mehnat bozoriga tayyorlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, har bir o'quvchi o'z salohiyatini ochib bera oladigan rag'batlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish ham muhimdir. Bunday yondashuv nafaqat shaxsning kasbiy malakasi va raqobatbardoshligini oshiradi, balki jamiyatning uyg'un ijtimoiy rivojlanishi uchun ham poydevor yaratadi.

Globalizatsiya sharoitida ta'lim jarayoni nafaqat shaxsning individual rivojlanishiga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham xizmat qiluvchi fundamental vositaga aylanmoqda. Shu kontekstdagi innovatsion usullar, xususan, raqamli resurslardan foydalanishga asoslangan yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday metodlar ta'lim jarayoni uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi, uni yanada moslashuvchan, qulay va shaxsiylashtirilgan holga keltiradi. Raqamli texnologiyalarning ta'limda qo'llanilishi o'quv jarayoni sifatini sezilarli darajada oshirishni va'da qiladi hamda o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqillik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun noyob vositalarni taqdim etadi.

Ta'lim jarayoniga raqamli vositalarni joriy etish masalalari metodologik yondashuvlardan va o'quv dasturlaridan boshlab, texnik ta'minot hamda pedagog kadrlar malakasi bilan yakunlanadigan turli jihatlarni chuqur o'rganishni talab qiladi. Shu bois, ushbu tadqiqot nafaqat samarali innovatsion strategiyalarni aniqlash va baholashni, balki ularning pedagogik faoliyat kontekstida muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiluvchi asosiy omillarni ajratib ko'rsatishni ham maqsad qilib oladi. Bunda turli xil ta'lim tizimlari va madaniy an'analarning o'ziga xos jihatlari inobatga olinadi[3].

Hozirgi ta'lim tizimida an'anaviy usullardan zamonaviy texnologiyalar va pedagogik strategiyalarga asoslangan innovatsion yondashuvlarga siljish kuzatilmoqda. Bu jarayon zamonaviy jamiyat va mehnat bozori talablarining tezkor o'zgarishiga moslashish zarurati bilan izohlanadi. Mazkur maqolada loyiha asosida ta'lim, tajribaga tayangan o'qitish, interaktiv

metodlar va zamonaviy texnologiyalardan o'quv jarayonida foydalanish kabi asosiy innovatsion metodlar tahlil qilinadi.

Innovatsion o'qitish metodlari — bu yangi texnologiyalar, zamonaviy pedagogik uslublar va o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etishga asoslangan pedagogik yondashuvlardir. Ular interaktiv, moslashuvchan va individuallashtirilgan ta'lim muhitini yaratish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodiy ko'nikmalar va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion metodlarning asosiy xususiyati ularning faol va interaktiv xarakteridadir. Bu yondashuv bilimlarni chuqurroq va samaraliroq o'zlashtirish imkonini beradi. An'anaviy yondashuvlarda o'quvchi ma'lumotni "passiv ravishda qabul qilsa", innovatsion metodlar esa talabalarni ta'lim jarayoniga faol jalb etishga alohida urg'u beradi.

O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni rivojlantirish jarayoni xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy qadriyatlari va madaniy merosini asrab-avaylash, uni jahon madaniyati bilan uyg'un holda rivojlantirishga qaratilgan konseptual yondashuv asosida olib borilmoqda. Shu maqsadda qabul qilingan Milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi madaniyat sohasida huquqiy, institutsional va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirishni, tarixiy va madaniy merosni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo'llashni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi[4]. Konsepsiya doirasida etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash, xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalalari ham muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, madaniyat sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, innovatsion g'oyalar va ilg'or tajribalarni tatbiq etish orqali madaniy jarayonlarning samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

Madaniy siyosatning yana bir muhim jihati – xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirish, milliy madaniyatga jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida qarash, teng huquqlilik va inson huquqlarini hurmat qilish tamoyillariga asoslangan hamkorlikni kuchaytirishdan iborat. Shu bilan birga, madaniyat va san'at muassasalarining to'laqonli faoliyat yuritishini ta'minlash, moddiy resurs bazasini mustahkamlash, tarixiy obyektlarni muhofaza qilish hamda jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etiladi.

Ta'limning raqamlashtirilishi zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, pedagogikada innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish ta'lim sohasi vakillaridan maqsadli sa'y-harakatlarni talab etadi. Bunda metodik va texnologik yechimlarni ishlab chiqish, malakali mutaxassislarni tayyorlash, tajriba va ilg'or amaliyotlar almashinuvi uchun sharoit yaratish

zarur[5]. Ta'lim sohasi oldida turgan ulkan vazifalarning hal etilishi ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqib, uni yanada qulay, samarali va zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashtirilgan holda tashkil etish imkonini beradi.

Tarixiy-ma'naviy qadriyatlarning zamonaviy umuminsoniy-demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi milliy merosimizning davomiyligi va davr talablariga moslashuvchanligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Milliy qadriyatlar faqatgina o'tmish merosini saqlab qolish emas, balki uni zamonaviy ijtimoiy hayot va demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirish orqali ijodiy rivojlantiriladi. Shu bois tarixiy meros va zamonaviy qadriyatlarni uyg'un talqin etish millat manfaatlarini himoya qilish, ma'naviy izchillikni ta'minlash va jamiyatning kelajak taraqqiyotini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Milliy merosni ilmiy-nazariy asosda qayta o'rganish va uni yosh avlod ongiga singdirish — ma'naviy yangilanishning asosi hisoblanadi. Zero, qadimiy madaniy qatlamlarimiz, yozma yodgorliklar, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, diniy-ma'naviy an'analar bugungi umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashib, jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishi lozim. Bunday yondashuv bizga rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda milliy manfaatlarga mos unsurlarni tanlab olish va ularni hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

Ma'naviy yangilanish jarayoni millat va xalqlarning evolyutsion rivojlanishida zarur bosqich bo'lib, u milliy merosni ilg'or umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Shu o'rinda globallashtirish jarayonining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, lekin milliy meros va tarixiy xotira bilan bog'liqlikni saqlash dolzarb masaladir[6]. Umuminsoniy qadriyatlarning ildizlari aslida milliy meros, tarixiy tajriba va xalqning hayotiy amaliyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Asrlar davomida insoniyat dunyoviylik sari intilib keldi. Qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillar milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Inson huquq va erkinliklari, xususan, vijdon erkinligi qonun yo'li bilan kafolatlanishi demokratik taraqqiyotning poydevorini mustahkamlaydi. Shu jihatdan milliy meros va qadriyatlarni ilmiy asosda talqin qilish, ularni zamonaviy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirish kelajak taraqqiyotimizning muhim kafolatlaridan biri sanaladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy merosni ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlar orqali integratsiya qilish nafaqat pedagogik samaradorlikni oshiradi, balki yosh avlodning ma'naviy-axloqiy immunitetini mustahkamlash, milliy identitetni shakllantirish hamda global raqobatbardoshlikka erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida an'anaviy ta'lim metodlari raqamli platformalar, interaktiv texnologiyalar va kreativ pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilganida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalari, ijodiy salohiyati va axloqiy mas'uliyati sezilarli darajada rivojlanishi aniqlandi.

Shuningdek, milliy merosni o'rganishning innovatsion vositalarini qo'llash — o'quvchilarda tarixiy xotira va madaniy ongni mustahkamlash, zamonaviy ta'lim mazmunini milliy qadriyatlar bilan boyitish hamda yoshlarni global ma'naviy-ma'rifiy jarayonda faol subyekt sifatida shakllantirishning eng samarali yo'llaridan biri ekanligi ilmiy asosda isbotlandi.

Demak, milliy merosni ta'lim tizimida innovatsion asosda o'qitish barqaror rivojlanish paradigmasiga mos holda, yosh avlodni intellektual va ma'naviy jihatdan yetuk, global hamjamiyatga integratsiyalashgan holda milliy qadriyatlarini asraydigan barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bortolotto C. UNESCO, cultural heritage, and outstanding universal value: value-based analyses of the World Heritage and Intangible Cultural Heritage Conventions. – 2015.
2. Farxodjonova N. F., Abdurahimov V. A. Modern technologies of students training in higher education // НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. – 2020. – С. 5-7.
3. Бахтина Н.В. Цифровые инструменты в педагогической практике: международный опыт и отечественные перспективы. Методическое пособие. 2021. С. 112-125.
4. Farxodjonova N. Features of modernization and integration of national culture //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 2. – С. 167-172.
5. Berdikulova S., Bahodirova S. Globallashuv jarayonining yoshlar ma'naviyatida namoyon bo'lish xususiyatlari //Innovative developments and research in education. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 209-213.
6. Ergashev, A.T. Milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizni rivojlantirish, xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirish-ijtimoiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch // ORIENSS. 2025. №3.